

PAPER

INTEGRATIV METODLAR ORQALI O‘QUVCHILAR LINGVISTIK KREATIV INTELEKTINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Jabborova Maftuna Komil qizi ^{1,*}

¹ Qarshi davlat universiteti doktoranti

* maftuna97jabborova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada o‘quvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishda integrative metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, dars jarayonida foydalaniladigan integrativ metodlarning fanlararo hamda faoliyatlararo qanday amalga oshirilishi haqida ma’lumot berilgan.

Key words: integrativ metodlar, kreativlik, intellekt, ko‘p intellekt, ijodiy fikrlash, mantiqiylik.

Kirish

Kundan-kunga yangilanib borayotgan ta’lim tizimida dars jarayonlarini samarali, bolalar uchun qiziqarli, yangi bilimlar beruvchi, takrorlanmaydigan metodlar bilan tashkil etish, har bir pedagog uchun mas’uliyatli yondashuvni talab etadi. Dars jarayonida foydalanadigan metodlarimiz bolaga maqsadli ta’sir etishi uchun ushbu metodlarga mazmunan to‘g‘ri yondashishimiz zarur. Shunday ekan o‘quvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishda ham o‘ziga xos, metodik usullarni ishlab chiqishimiz ko‘zlangan natijaga erishishimizda yordam beradi. O‘quvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishda, dars jarayonida integrativ metodlardan foydalandik.

Integrativ metodlar – bu ta’lim jarayonida ma’lum bir maqsad asosida, turli xildagi faoliyat yo‘nalishlari, o‘qitish usullari hamda turli fanlarni uyg‘unlashirib, birlashtirgan holda qo‘llaniladigan metodlar to‘plamidir. Ushbu metodlarning asosiy vazifasi, bolaga berilayotgan bilimlarni qismlarga bo‘lib o‘rgatmasdan, balki uzviy, chambarchas hamda hayotdagi voqea-hodisalarga asoslangan holda taqdim etishdir.

Bilamizki, lingvistik kreativ intellekt– shaxsning til vositasidan noodatiy, takrorlanmas, original, yangicha va ijodiy foydalana olish qobiliyatidir. Ya’ni inson shaxsiy fikrlarini, so‘z, gap, matn va nutq orqali original, ijodiy va o‘ziga xos

tarzda ifodalay olsa, unda albatta lingvistik kreativ intellekt shakllangan bo‘ladi. Bundan tashqari bolalarning intellekt turlari bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, ular birgalikda rivojlanadi. Shunich uchun ham biz o‘quvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirishimiz uchun barcha intellekt turlaridan foydalanishimiz lozim.

Adabiyotlar sharhi

Pedagogik nuqtai nazardan “faollik” quyidagicha ta’riflanadi :

– in Bunda biz Govard Gardnerning “Ko‘p intellektlik nazariyasi” haqidagi kitobiga asoslanamiz. Ushbu kitob 1983-yilda AQShda muallif tomonida yozilgan. Unda muallif aqlning bir nechta turi mavjudligi, ular bir-biridan mustaqil va standart sinovlar bilan o‘lchab bo‘lmazligini qayd etadi. Barcha intellektlarning turlari bir-biriga tengligi, ularning har biri atrofdagi voqelik bilan o‘zaro ta’sir qilishning o‘ziga xos usulini anglatishi va ba’zi bir intellektni boshqalarga qaraganda yuqori baholash faqat madaniy an’ana ekanligini ham uqtiradi. Bu kitobni ko‘plab ta’lim mutaxassislari ijobiy qabul qilishdi. AQShning ba’zi maktablari turli xil razvedka turlariga moslashish maqsadida hatto o‘z dasturlarini qayta ko‘rib chiqishni boshladilar. Govard Gardner “Ko‘p intellekt” nazariyasida har bir odam turli darajada ifodalangan kamida 8

ta tipdagi intellektga ega ekanligini ochib berdi [1, 205–b]. Ular quyidagilar:

1. Verbal – lingvistik intellekt. Soʻz xotirasi, soʻz boyligi yaxshi, oʻqishni yaxshi koʻradi, soʻz bilan ijod qilishni yoqtiradi. Bular: shoir, yozuvchi, notiqalar hisoblanadi.

2. Mantiqiy – matematik intellekt. Hisoblash va sonlar bilan ishlashni, mantiqiy masalalar, boshqotirmalarni yechishni, shaxmat oʻynashni yaxshi koʻradi, tengqurlariga nisbatan koʻproq abstrakt darajada fikrlaydi, sabab-oqibat bogʻliqliklarini tushunadi. Bular: matematik, fizik va boshqalar.

3. Vizual – fazoviy intellekt. Koʻrish obrazlari bilan fikrlaydi, karta, sxema, diagrammalarni tekstga nisbatan oson oʻqiydi, xayolga berilish, rasm chizish, modellar konstruksiyalashni yaxshi koʻradi. Bular: rassom, haykaltarosh, meʼmor, ixtirochi, shaxmatchi.

4. Motor – harakatli intellekt. Yuqori sport natijasiga erishadi, boshqalarning harakati, mimikasi, odatlarini yaxshi takrorlaydi, hamma narsaga qoʻl tekkizish, buyumlarni qismlarga ajratish va yigʻish, yugurish, sakrash, kurash tushishni yaxshi koʻradi. Bular: raqqos, artist, sportchi.

5. Musiqaviy – ritmik intellekt. Qoʻshiqlar, kuylarni eslab qoladi, ovozi yaxshi, musiqa asbobini chaladi, xorda ashula aytadi, harakatlari va soʻzlashi ritmli, oʻzicha sezmasdan kuylaydi. Bular: bastakor, qoʻshiqchi.

6. Shaxslararo intellekt. Tengqurlari bilan muloqotni, boshqa bolalar bilan oʻynash va ularga oʻrgatishni yaxshi koʻradi, turli holatlarda yetakchi boʻlib qoladi, hamdardlikni, boshqalarga gʻamxoʻrlik koʻrsatishni biladi. Bular: siyosatchi, diplomat, diniy xodimlar.

7. Ichki shaxsiy intellekt. Mustaqillik hissi, iroda kuchini namoyish qiladi. Oʻzining yaxshi va yomon xislatlarini real anglaydi, vazifalarni hech kim xalaqit bermaganda yaxshi bajaradi, oʻzini boshqara oladi, yakka ishlashni maʼqul koʻradi, oʻz hissiyotlarini aniq tasvirlaydi, oʻz xatolaridan ibrat oladi, oʻz qadrini bilish hissi rivojlangan. Bular: psixolog, oʻqituvchi, tarbiyachilar.

8. Tabiatshunos intellekt. Tabiatga, tabiat hodisalariga, jonivor, oʻsimliklarga qiziqadi, tabiatni tushunish, atrof-muhitning belgilari va xususiyatlarini farqlash, tasniflash kabilarda qobiliyatini namoyon qiladi. Bular: tabiatshunos, ekolog, qishloq xoʻjaligi xodimlari.

Tadqiqot metodologiyasi

Integrativ metodlar turli xil yoʻnalishda amalga oshiriladi. Fanlararo integratsiya– bunda turli fanlar kesimida, masalan, adabiyot va sanʼat, ona tili va chet tili, musiqa va tasviriy faoliyat kabi fanlar birlashtiriladi. Faoliyatlar integratsiyasi– aqliy, jismoniy, mehnat va amaliy faoliyat turlarining birlashtirilgan koʻrinishida amalga oshiriladi. Metodlar integratsiyas– innovatsion, anʼanaviy va noanʼanaviy metodlar kombinatsiyasining birlashtirilgan koʻrinishi va boshqalar. Ushbu integrativ yoʻnalishlardan dars jarayonida foydalanish, koʻzlangan maqsadga erishishda biz uchun qulayliklar yaratadi.

Dars jarayonlarida oʻquvchilarning lingvistik kreativ intellektini shakllantirish uchun koʻp intellektlik nazariyasidan foydalanishimiz koʻzlangan maqsadga erishishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bolaga berilayotgan bilimlar atrofidagi voqea va hodisalarga chambarchas bogʻlangan boʻlishi lozim. Bundan tashqari ulardagi lingvistik kreativlik bir tomonlama emas, balki koʻp tomonlama pedagogik taʼsir natijasida shakllanadi. Oʻquvchilarga ona tili darslarida berilayotgan topshiriqlarni integrativ metodlar orqali turli faoliyatlarga bogʻlash kerak. Lingvistik kreativ intellektni shakllantiruvchi integrativ metodlarga “Aqliy hujum”, “Sinkveyn”, “Storytelling”, “Klaster” kabi metodlarni keltirishimiz mumkin ushbu metodlarni amalga oshirishda

fanlararo va faoliyatlar oʻrtasidagi integratsiyadan foydalanamiz. Shuning bilan birga, yuqoridagi intellekt turlarini ham bir–biriga bogʻlaymiz. Masalan, ona tili yoki chet tillaridagi darslarni sanʼatshunoslik fanlari bilan birga bogʻlasak boʻladi. Bunda oʻquvchilar berilgan topshiriqqa koʻra, turli xildagi rasmlar asosida hikoyalar, ertaklar yaratish imkoniyatiga ega boʻlishadi. Ona tili va IT darslari oʻrtasidagi integratsiya orqali komikslar yarata olish koʻnikmasiga ega boʻlishadi. Til va teatrning birlashishi esa, rolli oʻyinlarni paydo qiladi. Til va musiqaning birlashishi esa, sheʼrlarga ohang berib, ajoyib musiqalar kuylash uchun zamin yaratadi.

Tahlil va natijalar

Integrativ metodlardan foydalanish bolalarga bir vaqtning oʻzida tilning turli shakllari bilan ishlash imkoniyatini beradi. Bunda oʻquvchilar soʻzlarning metaforik, sintaktik tuzilishini oʻrganishadi, oʻz nutqida mukammal gapira olish koʻnikmasi shakllanadi. Bundan tashqari, soʻz boyligi oshadi, fikrlarini erkin ifodalashga oʻrganadi, ijodiy fikrlash va insonlar bilan qanday muloqotda boʻlish malakasi shakllanadi. Eng asosiysi dars jarayoni qiziqarli, interaktiv va samarali boʻladi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, bugungi taʼlim jarayonida oʻquvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ijodiy fikrlash, erkin mulohaza yuritish va oʻz fikrini obrazli ifodalash qobiliyatini shakllantirish zarur pedagogik muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarni bartaraf etishimiz uchun, lingvistik kreativ intellektni rivojlantirishda integrativ metodlardan keng foydalansak, barcha harakatlarimiz samarali boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011. – 496 p.
2. Говард Г. Теория множественности интеллекта – Москва, 1984.
3. Raximov M. Ijodiy fikrlash psixologiyasi. – Toshkent: fan va texnologiya, 2020. – 190 b.
4. Gʻulomova A. Innovatsion taʼlim metodlari – Toshkent: Nashir, 2022. – 175b.
5. Yoʻldoshev J., Hasanboyeva O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019. – 185 b.